

QuizGo .

O'rganganingiz yodingizda qolsin.

Flashcardlardan boshlanadigan,
muntazam o'rganishga yo'l ochadigan platforma.



INVESTITSIYA TALABI

120 mln so'm

OBUNA NARXI

36 000 so'm / oy

OMMAVIY RELIZ REJASI

Sentyabr 2026 oxirigacha

O'rganish bor. Takrorlash tizimi yetishmaydi.

“
Kecha yodlagan
so'zimni bugun
eslay olmadim.

Til o'rganuvchi uchun tanish vaziyat.
Bu foydalanuvchi iqtibosi emas, misol.

01 Nimani takrorlash kerak?

Yaxshi bilgan va qiyin so'zlar bir xil ro'yxatda qoladi.

02 Qachon qaytish kerak?

Takrorlash tasodifiy yoki imtihon oldiga yig'ilib qoladi.

03 Qanday davom ettirish kerak?

Katta materialni kundalik mashqqa aylantirish qiyin.

Har bir javob — keyingi takrorlashga yoʻl.

QuizGo flashcard va oraliqli takrorlashni bitta oʻrganish jarayoniga birlashtiradi.

01

Savolni koʻring

Masalan: **arrive** soʻzining
maʼnosi nima?

02

Eslab koʻring

Javobni ochishdan oldin
oʻzingiz javob berishga urining.

03

Javobni baholang

Yana, Qiyin, Yaxshi yoki Oson
orqali eslash darajasini
belgilang.

04

Qayta mashq qiling

Keyingi takrorlash
javobingizga qarab
rejalashtiriladi.

ASOSIY TAMOYIL

Qiyin maʼlumotga koʻproq eʼtibor.
Yaxshi eslangan maʼlumotga uzoqroq oraliq.

Usul haqida: [Anki Manual — Active Recall & Spaced Repetition](#). Bu QuizGo natijalarining mustaqil tadqiqoti emas.

Sodda boshlash.

Muntazam davom etish.

Bir ekran — bugungi reja.
Bir karta — bitta aniq savol.

Flashcard to'plamlari

So'zlar, atamalar va faktlar bilan mashq.

Javobga mos takrorlash

O'rganish sur'atiga mos qaytish.

Ko'rinadigan jarayon

Yangi, o'rganilayotgan va takrorlash kartalari.



01 — Bosh sahifa



02 — O'rganish

Maketlar mavjud interfeys tuzilishi va brend ranglariga asoslangan. Ekrandagi sonlar — namuna.

Avval bitta ehtiyojni juda yaxshi hal qilamiz.

BIRINCHI FOKUS

Til o'rganuvchilar

Inglizcha so'z va iboralarni eslab qolish.
Kundalik flashcard mashqi uchun aniq
holat.

KEYINGI SEGMENT

Abituriyentlar

Tarixiy sanalar, biologiya atamalari va asosiy
tushunchalarni takrorlash.

KENGAYISH

Talabalar

Fan bo'yicha fakt va atamalarni o'z
kartochkalari orqali mashq qilish.

QUIZGO'NING YO'NALISHI

O'zbekcha, tushunarli o'rganish tajribasi.

Raqobat gipotezasi — yangi algoritmi ixtiro qilish emas, balki takrorlash usulini
mahalliy foydalanuvchi uchun qulay kundalik odatga aylantirish.

Oddiy narx.

Takrorlanuvchi daromad modeli.

QUIZGO OBUNASI

36 000

so'm / oy

Foydalanuvchining to'lashga tayyorligi ommaviy relizdan keyin sinovdan o'tkaziladi.

FAOL PULLIK OBUNACHILAR

YALPI OYLIK TUSHUM

100	3,6 mln so'm
200	7,2 mln so'm
1 000	36 mln so'm

Hisob misoli: obunachilar × 36 000 so'm. Bu mavjud tushum emas. Soliq, to'lov/platforma komissiyalari va qaytarishlar ayrimagan.

Obuna tarkibi va bepul imkoniyatlar chegarasi pilot natijalari bilan aniqlanadi.

Avval kanalni tekshiramiz. Keyin ishlaganini kengaytiramiz.

24 mln**Maqsadli reklama**

Til o'rganishga qiziqqan auditoriya bilan kichik testlar.

12 mln**Ta'lim kontent yaratuvchilari**

Qisqa mahsulot namoyishi va o'lchanadigan havolalar.

8 mln**O'quv markazlari bilan pilot**

Guruh ichida foydalanish va o'qituvchi tavsiyasi.

4 mln**Kontent va kreativlar**


Haqiqiy foydalanish holatlari asosidagi materiallar.

REKLAMADAN ODATGACHA

- **Ro'yxatdan o'tdi**
Jalb qilish xarajati
- **Birinchi mashqni tugatdi**
Faollashuv
- **Qaytib o'qidi**
7 / 30 kunlik qaytish
- **Obuna bo'ldi**
Pullikka o'tish va bekor qilish

Dastlabki **6 mln so'm** — 48 mlnlik marketing budjeti ichidagi test bosqichi. Qolgan mablag' natijaga qarab ajratiladi.

Olti oylik yoʻnalish: foydalanuvchidan obunachigacha.



6 000

jami roʻyxatdan oʻtganlar

2 500

oylik faol foydalanuvchilar

200

faol pullik obunachilar

Hisob farazi: 2 500 oylik faol foydalanuvchi × 8% pullik ulush = 200 obunachi. Bu tasdiqlanmagan reja; jalb qilish, qaytish va obunani bekor qilish natijalariga qarab yangilanadi.

O'sish — darhol foyda degani emas.

Ssenariy	Oylik faol	Pullik ulush	Obunachi	Yalpi oylik tushum
Ehtiyotkor	1 000	5%	50	1,8 mln so'm
Asosiy reja	2 500	8%	200	7,2 mln so'm
Yuqori o'sish	5 000	10%	500	18 mln so'm

20 mln

120 mln ÷ 6 oy:
zaxira bilan o'rtacha oylik budjet.

556

obunachi × 36 000 so'm ≈ 20 mln.
Bu sof zararsizlik nuqtasi emas.

Investitsiyaning vazifasi — talab va iqtisodiy modelni tekshirish. Ushbu ssenariylar 6 oyda o'zini to'liq qoplashni va'da qilmaydi.

Barcha sonlar — rejalashtirish farazlari. Komissiya, soliq, chegirma va qaytarishlar hisobga olinmagan.

Flashcard — boshlanish.


Maqsad — o'rganish platformasi.



Keyingi bosqichga o'tish mezon: foydalanuvchilar qaytishi, obunaga talab va jalb qilish xarajati. Funksiyalar sonining o'zi muvaffaqiyat mezonini emas.

120 mln so'm.

Aniq yo'nalishlarga ajratilgan.



Marketing va foydalanuvchi jalb qilish Kichik sinovlar → samarali kanallar	48 mln	40%
Mahsulotni rivojlantirish Ishlab chiqish, dizayn va sifat nazorati	36 mln	30%
Texnik infratuzilma Server, ishlab chiqish vositalari va servislar	12 mln	10%
Operatsion xarajatlar Pilotlarni tashkil etish va ma'muriy ishlar	6 mln	5%
Zaxira Kutilmagan xarajatlar uchun	18 mln	15%

Bu narx takliflari bilan tasdiqlangan smeta emas. Taqsimot pilot natijalari va haqiqiy xarajatlarga ko'ra qayta ko'rib chiqiladi.

**QuizGo**

Bir marta yodlashdan — muntazam oʻrganishga.

Mahsulotni ommaga chiqarish, foydalanuvchi talabini tekshirish
va obuna modelini sinash uchun investitsiya izlayapmiz.

120 mln soʻm

6 oylik rivojlantirish
va bozorni sinash rejasi

- 36 000 soʻm / oy obuna
- Sentyabr oxirigacha reliz rejasi
- Oʻlchanadigan oʻsish sinovlari

Keyingi qadam: mahsulot demosini koʻrish va investitsiya shartlarini muhokama qilish.